PEDAGOIK TEXNOLOGIYALAR HAMDA PSIXOLOGIK AMALIYOTLARNING TA`LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Diyora G‘aniyeva Ismatulla qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Yoshlar bilan ishlash,ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur tezisda o`qitish samaradorligini oshirishning yangi bosqichida pedagogik-psixologik texnologiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, ta’lim samaradorligi, axborot texnologiyalari, innovatsiya.

KIRISH

Inson yaralibdiki, tarqaqqiyot, rivojlanish davom etib kelmoqda. Ibtidoiy davrdan to fan-texnika taraqqiy etgan bugungi kunga qadar bo‘lgan jarayonlar fikrimiz isboti.

Har qanday mamlakatning qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Istiqlol tufayli ma’naviy hayotimizda ulkan burilish sodir bo‘ldi. Mustaqillik bizning milliy- madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo‘lib xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatga ega.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg‘or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Xammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda. Ya’ni, o‘z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq” [1, 168].

Hozirgi kunga kelib pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va dars jarayoniga tadbiq etish, birinchidan, an’anaviy o‘qitish, yaratish va amaliyotga tadbiq etish, an’anaviy o‘qitish tizimi yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rish tufayli “axborotli o‘qitish” shaklida tavsiflanadi. Natijada o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, nufuzli bilim beruvchi manbaga aylanib borishi ta’kidlangan holda baholanmokda. “Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq ta’limi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs o‘ituvchi yoki muallim deyiladi. O‘qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e’tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan”[2, 59].

“Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga tayèrgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi” [3, 17].

Respublikamizda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ta’lim jarayonida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar har bir ta’lim muassasasida ta’lim sohasini jadallashtirishni talab etadi, yangilikni joriy etish yo‘li esa har doim murakkab va uzoq jarayon hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, pedagogik texnologiya va innovatsion texnologiyalar ta’limda yangilik kiritishning asosiy manbai bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2016.
3. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘raev. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.
4. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018.
5. Karimov, O‘. K. G. K. Ilm-fan va ta’lim sohasidagi axborotlashuv. 2018